

**YAPON TILI VA MADANIYAT: LINGVOMADANIY UYG‘UNLIK****O.F. Achilova, f.f.d.,***Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yapon tili va madaniyatining o‘zaro ta’siri lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yapon tilining leksik, pragmatik va yozuv tizimi orqali madaniy qadriyatlarning qanday aks etishi yoritilgan. Shuningdek, madaniyatning til tizimiga, kommunikativ uslublarga va ijtimoiy qadriyatlar shakllanishiga ta’siri ilmiy asosda izohlangan. Maqola yapon tilining madaniy kod sifatidagi o‘rnini belgilashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *yapon tili, madaniyat, lingvokulturologiya, keigo, tatemaе, honne, yozuv tizimi, ijtimoiy qadriyatlar.*

Har qanday til xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va dunyoqarashini ifodalovchi muhim ijtimoiy hodisadir. Shu nuqtai nazardan yapon tili – bu nafaqat aloqa vositasi, balki milliy tafakkur va madaniyatning in’ikosidir. Yapon jamiyatida tildagi har bir birlik, grammatik shakl va muloqot uslubi ma’lum ijtimoiy qadriyat yoki madaniy norma bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu holat til va madaniyat o‘rtasidagi rishtadan salolatdir.

So‘nggi yillarda lingvokulturologiya fani til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganishda muhim yondashuv sifatida shakllandi. Yapon tili ushbu yo‘nalish uchun o‘ziga xos model bo‘lib, u tildagi hurmat ifodasi, sokinlik fenomeni, estetik qadriyatlar va yozuv tizimi orqali milliy madaniyatni aks ettiradi.

Shu o‘rinda, ushbu maqolada ko‘zda tutilgan maqsad yapon tili va madaniyatining o‘zaro ta’sir mexanizmlarini lingvokulturologik tahlil qilish, hamda madaniy qadriyatlarning til tizimida qanday ifodalanishini aniqlashdan iboratdir.

Yapon tili murakkab hurmat kategoriyasiga ega tillardan biri bo‘lib, u jamiyatdagi ierarxik tuzilmaning lingvistik ifodasidir. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy masofa, yosh, lavozim va ijtimoiy maqomga qarab grammatik



va leksik shakllar tanlanadi. Bu holat yapon madaniyatining asosiy qadriyatlaridan biri 和(*wa*, uyg'unlik) tamoyiliga tayanadi.

Ushbu xalq madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirish odobdan tashqari deb hisoblanadi. Shu sababli *tatemae* (tashqi so'zlashuv) va *honne* (ichki haqiqat) tushunchalari mavjud. Bu madaniy norma tildagi pragmatik xususiyatlar, xususan, noaniq ifodalar, yumshoqlik va sokinlik bilan namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda, yapon yozuv tizimi *kanji*, *hiragana* va *katakana* nomlari bilan ataluvchi uchta madaniy qatlamni ifodalaydi. *Kanji* qadimiylik va an'anaviylikni, *hiragana* milliy ayollik estetikasi va tabiiylikni, *katakana* esa zamonaviylik va texnologik yangilikni bildiradi. Bu uchlik madaniyatning an'anaviy va modern unsurlar uyg'unligini lingvistik darajada ifodalaydi. Bundan tashqari, *romaji* nomi bilan yuritiladigan alifbo turi ham mavjud bo'lib, u lotin alifbosi kabi ko'rinishga ega va asosan yapon tili bilan tanish bo'lmaganlar uchun amal qiladi.

Yapon tilida estetik qadriyatlar so'z va ifoda tanlovida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *wabi-sabi* (oddiylikdagi go'zallik) konsepsiyasi tildagi soddalik, qisqalik va ritmik uyg'unlikka asos bo'ladi. Shuningdek, *Haiku* she'riy janri bu estetik qadriyatning eng yorqin ko'rinishidir. Yapon madaniyatida insonlar o'rtasidagi munosabatlar ierarxik, jamoaviy va muvozanatli xarakterga ega bo'lib, bu tildagi hurmat tizimida aks etadi.

Til orqali madaniyatni o'rganish yapon xalqining dunyoni idrok etish tarzini tushunish uchun muhim hisoblanadi. *Keigo* tizimi, *tatemae-honne* fenomeni, yozuv tizimidagi ko'p qatlamlilik bularning barchasi tilda madaniyat kodining mavjudligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, globallashuv davrida yapon tilida inglizcha so'zlarning ko'payishi kuzatilsa-da, madaniy qadriyatlarning asosi odob, uyg'unlik va estetik tafakkur kabi jihatlar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois yapon tili madaniyatni faqat ifodalabgina qolmay, uni saqlovchi va avlodlarga yetkazuvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Yapon tili va madaniyatining o'zaro aloqasi faqat tilshunoslik masalasi emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va ijtimoiy ongini ifodalovchi murakkab sotsiokulturologik hodisadir. Til inson



tafakkuri, ijtimoiy xulq va estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Shu jihatdan yapon tili milliy mentalitetning til shaklidagi in'ikosi bo'lib, u madaniyatni nafaqat ifodalaydi, balki uni uzluksiz tarzda qayta ishlab, saqlab va rivojlantirib boradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, yapon tilining yozuv tizimi ham madaniyatni ifodalovchi ko'p qatlamli struktura sifatida qaraladi. Kanji belgilarining semantik mazmuni, hiragana yozuvidagi nafislik va katakana orqali ifodalanayotgan zamonaviylik yapon madaniyatining tarixiy evolyutsiyasini aks ettiradi. Shu bois yozuv tizimi madaniy tarixning vizual shakli sifatida, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni vizual tarzda ifodalaydi. Har bir belgi, har bir yozuv shakli bu xalq tafakkurining tarixiy izidir.

Yapon jamiyatidagi har bir kommunikativ akt ijtimoiy muvozanatni saqlashga qaratilgan. Shu bois til, madaniyat va ijtimoiy me'yorlar bir butun tizim sifatida ishlaydi. *Keigo* orqali inson o'z jamiyatdagi o'rnini bildiradi, shu bilan birga ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlaydi. Bu jarayon "tilning sotsial funksiyasi" tushunchasini aniq namoyon etishga imkon beradi.

Til va madaniyat bir-birini to'ldiradi, qayta ishlab, o'zaro shakllantiradi. Shu ma'noda yapon tili ushbu xalq vakillarining milliy identifikatsiyaning asosiy belgisi va sivilizatsion merosni saqlovchi vositadir. Tili orqali madaniyatni o'rganish – bu xalq tafakkurini, qadriyatlarini, estetik idealini va ijtimoiy me'yorlarini tushunishdir. Shu sababli yapon tili bo'yicha tadqiqotlar faqat grammatik yoki leksik darajada emas, balki madaniyatshunoslik, falsafa va psixolingvistika kesishmasida olib borilishi zarur. Faqat shundagina yapon tilining asl mohiyati – millat ruhi, estetik tafakkuri va ijtimoiy uyg'unlik falsafasi to'liq anglanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Achilova O.F. Yapon va o'zbek imperativ maqollarning pragma – diskursiv xususiyatlari: Fil.fan.dokt. (DSc) ... diss. – Тошкент, 2025. – 217 b.
2. Jo'rayev A. *Sharq tillari va madaniyati*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.



3. Суслов В.Н. *Японский язык и культура общения*. Москва: Восточная литература, 2018.
4. Кимура Х. *Традиции японского общества через язык*. Токио: NHK Press, 2016.
5. Miller, R. A. *The Japanese Language: Character and Culture*. Tokyo: Tuttle Publishing, 2021.
6. 佐藤真一 (Satō Shin'ichi). 『日本語と日本文化』. 東京: 岩波書店, 2020 年.
7. 田中一郎 (Tanaka Ichirō). 『言葉の中の日本文化』. 京都: 南風社, 2018 年.